ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
Shohruzbek Ruziyev	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULYAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	1156
Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
Kodirova Samira Kamol qizi	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	1169
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIKLARNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	1175
Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI	1181
Kazakova Zulayho, Saidazamova Nilufar, Isroilov Shohruh	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
Jalolova Madina Shopolat qizi	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	1192
Шермухамедов Акмал Комилжонович	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
Umarov Xasan Sunnatullaevich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII	1210
To'rayeva Nafisa Odiljonovna	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	1221
Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI	1233
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
Zararli dasturiy ta'minotni aniqlash va tahlil qilishda neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari.....	1238
Nuratdinov Xushnid Begzadovich, Erejepov Kewlimjay Kaymatdinovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1244
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI TAMOIYILLAR VA YONDASHUVLAR.....	1250
Saitmuratov Saitmuarat Masharip o'g'li	
ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQISH.....	1255
Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li	



SOLIQ ORGANLARI VA SOLIQ TO'LOVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI SUDGACHA HAL ETISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1263
Solihova Xumora Xasan qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	1269
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARI MUVOFIQLIGI VA UNI BOSHQARISH	1274
Saidov Doniyor Abdullayevich	
AI-BASED AUTOMATED ASSESSMENT SYSTEMS AND THEIR ROLE IN EDUCATION QUALITY MONITORING: THE CASE OF UZBEKISTAN.....	1280
Majidova Yulduz, Janayev Bunyod, Choriyev Anvar, Mamatqulov Mavlon	
MAHALLIY BYUDJETLARDA SOLIQLARNI UNDIRISHNI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI	1286
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI.....	1294
Murtazayev Olim, Norbekov Fazliddin Iskandar o'g'li	
SOLIQ NIZOLARINI MA'MURIY TARTIBDA KO'RIB CHIQISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1301
Solihova Xumora Xasan qizi	
KRIPTOAKTIVLAR VA MBRVNING MONETAR SIYOSAT TRANSMISSIYA MEXANIZMIGA TA'SIRI	1305
R.I. Rashidov, S.B.Eshmurodova	
"SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" MODELINING SINERGETIK SAMARADORLIGI VA TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI INVESTITSİYALAR BILAN TA'MINLASHDAGI IMKONIYATLARI.....	1310
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
KORPORATIV KONFLIKTLARNI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1318
Xolikova Saboxat Abdukarim qizi	
LONDON XALQARO MOLIYA MARKAZINING RIVOJLANISH OMILLARI VA RAQOBAT USTUNLIKLARI	1325
Alimardonov Elshod Dilshodovich	

KORPORATIV KONFLIKTLARNI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI

Xolikova Saboxat Abdulkarim qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Umumiqtisodiy fanlar” kafedrasida katta o'qituvchisi

ORCID: 0000-0003-0424-4427

Email: kholikovasabokhat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada korporativ konfliktlarning iqtisodiy mohiyati, ularning korporativ boshqaruv tizimiga ta'siri hamda konfliktlarni tartibga solishning moliyaviy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida agentlik nazariyasi, korporativ boshqaruv konsepsiyalari va xalqaro tajribalar asosida korporativ konfliktlarning asosiy sabablari tahlil qilindi. Shuningdek, rag'batlantirish tizimlari, dividend siyosati, korporativ nazorat, risklarni boshqarish, axborot oshkoraligi va ESG tamoyillarining korporativ konfliktlarni kamaytirishdagi o'rni yoritildi. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: korporativ konfliktlar, korporativ boshqaruv, moliyaviy mexanizmlar, agentlik nazariyasi, aksiyadorlar, menejerlar, dividend siyosati, risklarni boshqarish, ESG tamoyillari, korporativ nazorat, investorlar, moliyaviy shaffoflik.

Аннотация: В данной статье исследованы экономическая сущность корпоративных конфликтов, их влияние на систему корпоративного управления, а также финансовые механизмы их регулирования. В ходе исследования на основе агентской теории, концепций корпоративного управления и международного опыта проанализированы основные причины возникновения корпоративных конфликтов. Особое внимание уделено роли систем стимулирования, дивидендной политики, корпоративного контроля, управления рисками, информационной прозрачности и принципов ESG в снижении уровня корпоративных конфликтов. На основе зарубежного опыта разработаны практические рекомендации, направленные на повышение эффективности корпоративного управления.

Ключевые слова: корпоративные конфликты, корпоративное управление, финансовые механизмы, агентская теория, акционеры, менеджеры, дивидендная политика, управление рисками, принципы ESG, корпоративный контроль, инвесторы, финансовая прозрачность.

Abstract: This article examines the economic nature of corporate conflicts, their impact on corporate governance systems, and the financial mechanisms used for their regulation. Based on agency theory, corporate governance concepts, and international experience, the study analyzes the main causes of corporate conflicts. Particular attention is paid to the role of incentive systems, dividend policy, corporate control, risk management, information transparency, and ESG principles in reducing corporate conflicts. Drawing on foreign experience, practical recommendations aimed at improving the effectiveness of corporate governance are proposed.

Keywords: corporate conflicts, corporate governance, financial mechanisms, agency theory, shareholders, managers, dividend policy, risk management, ESG principles, corporate control, investors, financial transparency.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida korporativ boshqaruv tizimining takomillashuvi, aksiyadorlik munosabatlarning murakkablashuvi hamda kapital bozorlarining globallashuvi sharoitida korporativ konfliktlarni samarali boshqarish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylanmoqda. Korporativ konfliktlar aksiyadorlar, menejerlar, direktorlar kengashi, investorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlar qarama-qarshiligi natijasida yuzaga kelib, korxonaning moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi va bozor qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy korporatsiyalarda mulkchilik va boshqaruvning ajralishi agentlik muammolarini kuchaytirib, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda korporativ qarorlar qabul qilish jarayonida turli ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

So'nggi yillarda xalqaro amaliyotda korporativ konfliktlarni bartaraf etishda an'anaviy huquqiy vositalar bilan bir qatorda moliyaviy mexanizmlarning ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, korporativ nazorat tizimlarini takomillashtirish, manfaatdor tomonlarning iqtisodiy rag'batlarini muvofiqlashtirish, dividend siyosatini optimallashtirish, aksiyalarni qayta sotib olish dasturlarini qo'llash, kompensatsiya paketlarini samarali shakllantirish hamda risklarni boshqarish instrumentlaridan foydalanish korporativ konfliktlarni



minimallashtirishning muhim vositalari sifatida e'tirof etilmoqda. ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillarining keng joriy etilishi, korporativ shaffoflik standartlarining kuchayishi, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlarining rivojlanishi ham korporativ manfaatlar muvozanatini ta'minlashning yangi mexanizmlarini shakllantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, kapital bozorlarini rivojlantirish va investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa korporativ konfliktlarning iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish, ularni oldini olish hamda tartibga solishda samarali moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, korporativ konfliktlarni tartibga solishning moliyaviy mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, ularning korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishdagi rolini baholash hamda takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ konfliktlar va ularni boshqarish masalalari korporativ boshqaruv nazariyasining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohadagi dastlabki fundamental tadqiqotlar A.A. Berle va G.C. Means tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, mualliflar korporatsiyalarda mulkchilik va boshqaruvning ajralishi natijasida aksiyadorlar hamda menejerlar o'rtasida manfaatlar qarama-qarshiligi yuzaga kelishini asoslab berganlar. Ularning fikricha, korporatsiyalarning yiriklashuvi natijasida mulkdorlarning boshqaruv jarayonlaridagi ishtiroki kamayadi va bu holat korporativ konfliktlarning shakllanishiga zamin yaratadi [2].

Korporativ konfliktlarning iqtisodiy mohiyatini chuqurroq yoritishda Jensen va Mecklingning agentlik nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Mualliflar menejerlar va aksiyadorlar manfaatlarining mos kelmasligi agentlik xarajatlarini keltirib chiqarishini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida korporativ boshqaruv tizimida rag'batlantirish mexanizmlari, nazorat vositalari va mulkchilik tuzilmasini takomillashtirish orqali ushbu xarajatlarni kamaytirish mumkinligi asoslab berilgan [3].

Korporativ boshqaruv nazariyasining rivojlanishida Shleifer va Vishnyning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular investorlar huquqlarini himoya qilish, korporativ nazorat tizimini kuchaytirish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlash korporativ konfliktlarni kamaytirishning asosiy shartlaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Tadqiqotchilar korporativ boshqaruvning samarali modeli kapital bozorlarining rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etganlar [4].

B. Tricker korporativ boshqaruvni strategik boshqaruv, nazorat va javobgarlik tizimlarining integratsiyasi sifatida talqin qiladi. Muallif korporativ konfliktlarning oldini olishda kuzatuv kengashlari faoliyati, mustaqil direktorlar instituti va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot muhim o'rin tutishini asoslaydi. Uning tadqiqotlari zamonaviy korporativ boshqaruvning institutsional mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi [5].

C.A. Mallin korporativ boshqaruvning amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratib, korporativ konfliktlarni tartibga solishda aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, audit qo'mitalari faoliyati va risklarni boshqarish tizimlarining ahamiyatini yoritadi. Muallif korporativ boshqaruv samaradorligi investorlar ishonchi va korxonaning bozor qiymatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [6].

Monks va Minow korporativ boshqaruvni korporatsiya va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, korporativ konfliktlarni kamaytirish uchun shaffoflik, hisobdorlik va adolat tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimi zarur. Mualliflar, shuningdek, institutsional investorlarning korporativ nazoratdagi roliga ham alohida e'tibor qaratganlar [7].

Korxonalarda korporativ boshqaruvning xalqaro standartlarini shakllantirishda OECD tamoyillari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur hujjatda aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, manfaatdor tomonlarning rolini kuchaytirish, axborot oshkoraligini ta'minlash va kuzatuv kengashlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan prinsiplar belgilangan. Ushbu tamoyillar bugungi kunda ko'plab davlatlarda korporativ konfliktlarni tartibga solishning asosiy mezonlari sifatida qo'llanilmoqda [8].

J. Solomon korporativ boshqaruv va javobgarlik masalalarini o'rganar ekan, korporativ konfliktlarni bartaraf etishda ESG tamoyillarining ahamiyati ortib borayotganini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini hisobga olgan holda qabul qilingan qarorlar manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yordam beradi [9].

Ross, Westerfield va Jordan korporativ moliyaning nazariy va amaliy asoslarini yoritib, kapital tuzilmasi, dividend siyosati va investitsion qarorlarning korporativ konfliktlarga ta'sirini tahlil qiladilar. Ularning tadqiqotlari korporativ moliyaviy strategiyalarni shakllantirishda aksiyadorlar manfaatlarini maksimal darajada ta'minlash zarurligini ko'rsatadi [10].

Brigham va Houston korporativ moliya tizimida risklarni boshqarish, kapital qiymatini optimallashtirish va

korporativ nazorat mexanizmlarining ahamiyatini asoslab beradilar. Mualliflar korporativ konfliktlarni kamaytirish uchun moliyaviy qarorlarning uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirilishi zarurligini ta'kidlaydilar [11].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili korporativ konfliktlarning asosiy sababi mulkchilik va boshqaruv manfaatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar korporativ konfliktlarni bartaraf etishda moliyaviy rag'batlantirish tizimlari, dividend siyosati, korporativ nazorat, axborot oshkoraligi, risklarni boshqarish hamda ESG tamoyillariga asoslangan mexanizmlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shu sababli zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida ushbu vositalardan kompleks foydalanish korporatsiyalar faoliyatining barqarorligi va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda korporativ konfliktlarni tartibga solishning moliyaviy mexanizmlarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy tahlil va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar xalqaro ilmiy adabiyotlar, korporativ boshqaruv bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, moliyaviy hisobotlar hamda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida korporativ konfliktlarning kelib chiqish omillari va ularni moliyaviy instrumentlar orqali tartibga solish amaliyoti tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirish, taqqoslash va mantiqiy xulosa chiqarish usullari orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korporativ konfliktlar zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, ular turli manfaatdor tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporatsiyalar faoliyati aksiyadorlar, menejerlar, kreditorlar, investorlar, xodimlar va davlat organlari kabi ko'plab subyektlarning manfaatlari bilan chambarchas bog'liq. Mazkur manfaatlarning turlicha bo'lishi esa korporativ konfliktlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, korporativ mulkchilik va boshqaruv funksiyalarining ajralishi natijasida vujudga keladigan agentlik muammolari korporativ ziddiyatlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda korporativ konfliktlar aksiyadorlar va menejerlar, majoritar va minoritar aksiyadorlar, korporatsiya va kreditorlar hamda korporatsiya va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ziddiyatlar sifatida tavsiflanadi. Ushbu konfliktlar korporatsiyaning moliyaviy natijalariga, investitsion jozibadorligiga hamda uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli korporativ konfliktlarni samarali boshqarish va ularni minimallashtirish korporativ boshqaruvning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Agentlik nazariyasiga ko'ra, aksiyadorlar korporatsiyaning mulkdorlari sifatida kompaniya qiymatini maksimal darajada oshirishdan manfaatdor bo'lsa, menejerlar ayrim hollarda shaxsiy manfaatlarini korporativ manfaatlardan ustun qo'yishi mumkin. Natijada korporatsiya resurslaridan samarasiz foydalanish, ortiqcha xarajalar, investitsion loyihalarning noto'g'ri tanlanishi va foydaning pasayishi kabi holatlar yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarda moliyaviy mexanizmlar menejerlarning manfaatlarini aksiyadorlar manfaatlari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Korporativ konfliktlarni samarali boshqarish masalasi rivojlangan davlatlar korporativ boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, korporativ ziddiyatlarni bartaraf etishda moliyaviy rag'batlantirish, korporativ nazorat, dividend siyosati va risklarni boshqarish mexanizmlaridan kompleks foydalanish yuqori natija bermoqda. Quyidagi jadvalda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval. Korporativ konfliktlarni tartibga solishning moliyaviy mexanizmlari bo'yicha xorijiy tajriba¹

Mamlakat	Korporativ konflikt turi	Qo'llaniladigan moliyaviy mexanizm	Natijasi
AQSh	Aksiyadorlar va menejerlar o'rtasidagi konflikt	Aksiyalar opsiolari, bonus tizimi, mustaqil direktorlar instituti	Menejerlar manfaatlari aksiyadorlar manfaatlariga yaqinlashtiriladi
Buyuk Britaniya	Majoritar va minoritar aksiyadorlar o'rtasidagi konflikt	Dividend siyosati va axborot oshkoraligi talablari	Investorlar huquqlarini himoya qilish kuchayadi

1 Manba: xalqaro korporativ boshqaruv amaliyoti va OECD tamoyillari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Germaniya	Menejment va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi konflikt	Ikki pog'onali boshqaruv tizimi va moliyaviy nazorat	Qarorlar ustidan nazorat samaradorligi oshadi
Yaponiya	Korporatsiya va kreditorlar o'rtasidagi konflikt	Bank monitoringi va uzoq muddatli moliyalashtirish tizimi	Moliyaviy barqarorlik va risklarni nazorat qilish kuchayadi
Kanada	Investorlar va korporatsiya o'rtasidagi konflikt	ESG hisobotlari va integratsiyalashgan hisobot tizimi	Shaffoflik va investorlar ishonchi ortadi
Singapur	Axborot assimetriyasi bilan bog'liq konfliktlar	Raqamli korporativ boshqaruv va elektron audit tizimlari	Korporativ ma'lumotlarning ochiqligi ta'minlanadi

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda korporativ konfliktlarni bartaraf etishda turli moliyaviy mexanizmlardan foydalanilsa-da, ularning asosiy maqsadi manfaatdor tomonlar o'rtasidagi manfaatlar muvozanatini ta'minlashdan iborat. AQSh va Buyuk Britaniyada aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan rag'batlantirish hamda oshkoralik mexanizmlari ustuvor hisoblanadi. Germaniya tajribasida korporativ nazoratning institutsional shakllari muhim ahamiyat kasb etsa, Yaponiyada bank nazorati va uzoq muddatli hamkorlik munosabatlari ustunlik qiladi. Kanada va Singapurda esa ESG tamoyillari hamda raqamli boshqaruv vositalari korporativ konfliktlarni kamaytirishning zamonaviy instrumentlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tajribalar O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va korporativ konfliktlarni moliyaviy mexanizmlar orqali samarali tartibga solishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Korporativ konfliktlarni tartibga solishda qo'llaniladigan eng muhim moliyaviy mexanizmlardan biri rag'batlantirish tizimidir. Xususan, menejerlarning mehnatiga haq to'lash tizimini korporatsiyaning moliyaviy natijalari bilan bog'lash amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Bonuslar, aksiyalar opsiolari, uzoq muddatli rag'batlantirish dasturlari hamda samaradorlik ko'rsatkichlariga asoslangan mukofotlash tizimlari menejerlarning qaror qabul qilish jarayonida aksiyadorlar manfaatlarini hisobga olishiga xizmat qiladi. Bunday mexanizmlar menejerlarni korporatsiyaning bozor qiymatini oshirishga va uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishga undaydi.


Dividend siyosati ham korporativ konfliktlarni tartibga solishning muhim moliyaviy vositalaridan biri hisoblanadi. Korporatsiya foydasining qanday taqsimlanishi aksiyadorlar va menejerlar o'rtasidagi munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar kompaniya foydaning katta qismini reinvestitsiya qilishga yo'naltirsa, ayrim aksiyadorlar dividend daromadlarining kamayishidan norozi bo'lishi mumkin. Aksincha, yuqori dividend to'lovlari investitsion imkoniyatlarning qisqarishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu sababli optimal dividend siyosatini shakllantirish korporativ manfaatlar muvozanatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda aksiyalarni qayta sotib olish (share buyback) dasturlari ham korporativ konfliktlarni yumshatishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Ushbu mexanizm orqali kompaniya o'z aksiyalarining bir qismini bozordan qayta sotib olib, aksiyalar qiymatini oshirish va aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday amaliyot kapital tuzilmasini optimallashtirishga, ortiqcha likvidlikni samarali boshqarishga hamda investorlarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Korporativ konfliktlarni kamaytirishda korporativ nazorat tizimining moliyaviy instrumentlari alohida ahamiyatga ega. Ichki audit xizmatlari, mustaqil auditorlik tekshiruvlari, risklarni boshqarish tizimlari va moliyaviy nazorat mexanizmlari korporatsiya faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar asosida tayyorlanishi va e'lon qilinishi manfaatdor tomonlar o'rtasida axborot assimetriasini kamaytiradi. Natijada korporativ qarorlar qabul qilish jarayonining ochiqligi oshadi va ziddiyatlar yuzaga kelish ehtimoli pasayadi.

Korporativ konfliktlarning kelib chiqishida axborot assimetriyasi muhim rol o'ynaydi. Menejerlar korporatsiya faoliyati to'g'risida aksiyadorlarga nisbatan ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi sababli ayrim hollarda ushbu ustunlikdan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan korporativ oshkoralik va axborotlarni o'z vaqtida e'lon qilish mexanizmlari korporativ boshqaruv samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda ESG hisobotlari, integratsiyalashgan hisobotlar va korporativ barqarorlik hisobotlarining keng joriy etilishi aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Kreditorlar va aksiyadorlar o'rtasidagi konfliktlar ham korporativ boshqaruvda muhim o'rin tutadi. Aksiyadorlar yuqori daromad olish maqsadida yuqori riskli loyihalarni qo'llab-quvvatlashi mumkin, biroq bunday qarorlar kreditorlarning manfaatlariga zid bo'lishi ehtimoli mavjud. Mazkur konfliktlarni yumshatishda qarz shartnomalaridagi moliyaviy cheklovlar (covenants), kredit reytinglari, sug'urta mexanizmlari va risklarni diversifikatsiya qilish vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular korporatsiyaning moliyaviy intizomini mustahkamlash va investorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Korporativ konfliktlarni bartaraf etishning moliyaviy mexanizmlari²

Mazkur sxema korporativ konfliktlarni bartaraf etishning moliyaviy mexanizmlarini tizimli ravishda aks ettiradi. Tahlildan ko'rinadiki, korporativ konfliktlarning asosiy sababi manfaatdor tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlar nomuvofiqligidan iborat. Ushbu ziddiyatlarni kamaytirishda rag'batlantirish tizimi menejerlar va aksiyadorlar manfaatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Dividend siyosati korporativ foydaning oqilona taqsimlanishini ta'minlab, aksiyadorlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning oldini oladi. Korporativ nazorat

2 Manba: muallif tomonidan korporativ boshqaruv va moliyaviy mexanizmlar nazariyalari asosida ishlab chiqilgan.



tizimi, jumladan ichki audit va moliyaviy monitoring mexanizmlari korxona faoliyatining shaffofligini oshiradi hamda axborot assimetriasini kamaytiradi. Risklarni boshqarish instrumentlari esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash orqali investorlar va kreditorlar manfaatlarini himoya qiladi. Shu bilan birga, axborot oshkoraligi va ESG tamoyillarining joriy etilishi manfaatdor tomonlar o'rtasida ishonch muhitini shakllantiradi. Natijada korporativ konfliktlar kamayib, korporativ boshqaruv samaradorligi hamda korporatsiyaning bozor qiymati oshishiga erishiladi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari korporativ konfliktlarni boshqarishning yangi moliyaviy mexanizmlarini shakllantirmoqda. Sun'iy intellekt, Big Data texnologiyalari, blokcheyn tizimlari va raqamli audit vositalari korporativ boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirmoqda. Xususan, blokcheyn texnologiyasi asosida yuritiladigan korporativ operatsiyalar ma'lumotlarni o'zgartirib bo'lmaz shaklda saqlash imkonini beradi. Bu esa moliyaviy manipulyatsiyalar va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi.

ESG tamoyillarining korporativ boshqaruv tizimiga joriy etilishi ham korporativ konfliktlarni tartibga solishning zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. ESG yondashuvi korporatsiya faoliyatida faqat moliyaviy natijalarga emas, balki ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillariga ham e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Natijada manfaatdor tomonlar doirasi kengayadi va korporativ qarorlar qabul qilishda barcha ishtirokchilarning manfaatlari hisobga olinadi. Bu esa korporativ konfliktlar sonining kamayishiga va korporativ barqarorlikning oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, kuzatuv kengashlari faoliyatini kuchaytirish, mustaqil direktorlar institutini rivojlantirish hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar korporativ konfliktlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kapital bozorining rivojlanishi, institutsional investorlar sonining ortishi va korporativ oshkoralik talablarining kuchayishi moliyaviy mexanizmlarning rolini yanada oshirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korporativ konfliktlarni bartaraf etishda alohida bir moliyaviy instrumentning o'zi yetarli emas. Yuqori samaradorlikka erishish uchun rag'batlantirish tizimlari, dividend siyosati, korporativ nazorat, risklarni boshqarish, axborot oshkoraligi va ESG tamoyillarini o'z ichiga olgan kompleks moliyaviy mexanizmlardan foydalanish zarur. Bunday yondashuv korporatsiyalar faoliyatining barqarorligini ta'minlash, investorlar ishonchini mustahkamlash, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, korporativ konfliktlar zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining muhim tarkibiy elementi bo'lib, ular aksiyadorlar, menejerlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlar qarama-qarshiligi natijasida yuzaga keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korporativ konfliktlarning mavjudligi korxonalarining moliyaviy natijalari, investitsion jozibadorligi va bozor qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, rag'batlantirish tizimlari, dividend siyosati, korporativ nazorat, risklarni boshqarish, axborot oshkoraligi hamda ESG tamoyillariga asoslangan yondashuvlar korporativ konfliktlarni samarali tartibga solishning muhim moliyaviy mexanizmlari hisoblanadi. Xorijiy tajriba tahlili ushbu mexanizmlarning kompleks qo'llanilishi korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish va manfaatdor tomonlar o'rtasida barqaror muvozanatni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida korporativ konfliktlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Aksiyadorlar va menejerlar manfaatlarini uyg'unlashtirish maqsadida korxonalarda samaradorlik ko'rsatkichlariga bog'langan uzoq muddatli rag'batlantirish va aksiyalar opsionlari tizimini keng joriy etish lozim.

Korporativ oshkoralikni kuchaytirish uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida hisobot berish amaliyotini kengaytirish hamda ESG hisobotlarini tayyorlash mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Kuzatuv kengashlari faoliyatida mustaqil direktorlar ulushini oshirish va ularning korporativ qarorlar qabul qilishdagi rolini kuchaytirish zarur.

Korporativ risklarni boshqarish tizimlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda ichki audit xizmatlarining institutsional salohiyatini mustahkamlash tavsiya etiladi.

Raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, Big Data va blokcheyn asosidagi korporativ nazorat vositalarini joriy etish orqali axborot assimetriasini kamaytirish va moliyaviy shaffoflikni oshirish lozim.

Kapital bozorida minoritar investorlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda korporativ nizolarni sudgacha hal etishning zamonaviy vositalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi korporativ konfliktlarni kamaytirish, investorlar ishonchini mustahkamlash, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotda korporativ sektorning



barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-2382409>
2. Berle A.A., Means G.C. The Modern Corporation and Private Property. – New York: Harcourt, Brace & World, 1968. – 380 p.
3. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, No. 4. – P. 305–360.
4. Shleifer A., Vishny R.W. A Survey of Corporate Governance // The Journal of Finance. – 1997. – Vol. 52, No. 2. – P. 737–783.
5. Tricker B. Corporate Governance: Principles, Policies and Practices. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – 568 p.
6. Mallin C.A. Corporate Governance. – 7th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2022. – 432 p.
7. Monks R.A.G., Minow N. Corporate Governance. – 6th ed. – Chichester: John Wiley & Sons, 2022. – 528 p.
8. OECD Principles of Corporate Governance. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 70 p.
9. Solomon J. Corporate Governance and Accountability. – 5th ed. – Chichester: John Wiley & Sons, 2020. – 384 p.
10. Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. – 13th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2022. – 992 p.
11. Brigham E.F., Houston J.F. Fundamentals of Financial Management. – 16th ed. – Boston: Cengage Learning, 2021. – 864 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100